



OFFENSES RELATED TO VIOLATIONS OF CUSTOMS LEGISLATION AND ISSUES OF CRIMINAL LIABILITY IN RELATION TO THEM

Ilyasbek Tojaliyev

Senior inspector of "Fergana" border customs post, captain of customs service

Fergana region customs department

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Laws on customs, crimes related to violation of documents of the Law on Customs, crime, criminal responsibility, object and weapon of crime, legal basis, factual basis, procedural basis, Customs legislation

Received: 15.10.22

Accepted: 17.10.22

Published: 19.10.22

Abstract: the article analyzes the crimes related to the violation of customs legislation and the factors of criminal liability in relation to them. Also, the scientific basis for the prevention of violations, ensuring citizens' compliance with the laws and regulations of the Republic of Uzbekistan is described.

BOJXONA TO'G'RISIDAGI QONUN HUJJATLARI BUZILISHI BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLAR VA ULARGA NISBATAN JINOIY JAVOBGARLIK MASALALARI

Ilyosbek Tojaliyev

"Farg'ona" chegara bojxona posti katta inspektori, bojxona xizmati kapitani

Farg'ona viloyati bojxona boshqarmasi

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlar, Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarni buzish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar, jinoyat, jinoiy javobgarlik, jinoyat predmeti va quoli, yuridik asos, faktik asos, protsessual asos, *Bojxona qonunchiligi*

Annotatsiya: maqolada bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi bilan bog'liq jinoyatlar va ularga nisbatan jinoiy javobgarlik omillari tahlil qilingan. Shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi qonunlari va qonun osti hujjatlariga rioya etishni ta'minlashga oid ilmiy asoslar bayon etilgan.

ПРАВОНАРУШЕНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С НАРУШЕНИЯМИ ТАМОЖЕННОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА, И ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В СВЯЗИ С НИМИ

Ильясбек Тоджалиев

Старший инспектор пограничного таможенного поста «Фергана», капитан таможенной службы

*Таможенное управление Ферганской области
Фергана, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Законы о таможене, преступления, связанные с нарушением документов Закона о таможене, преступление, уголовная ответственность, предмет и орудие преступления, правовая основа, фактическая основа, процессуальная основа, таможенное законодательство

Аннотация: в статье анализируются преступления, связанные с нарушением таможенного законодательства, и факторы уголовной ответственности в отношении них. Также описаны научные основы предупреждения правонарушений, обеспечения соблюдения гражданами нормативных правовых актов Республики Узбекистан.

KIRISH

So‘ngi yillarda respublikamizda amalga oshirilayotgan isloxotlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, muxtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan bojxona sohasiga alohida e‘tibor qaratilib, bojxona tizimi va faoliyatini takomillashtirib, bojxona sohasida sodir etilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarga nisbatan javobgarlik masalalariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Bojxona organlari bevosita tadbirkorlar bilan ishlaganliklari sababli, tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday qonun hujjatlarni o‘rganib chiqishlari talab etiladi. Shu jumladan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-4848-son Farmoniga muvofiq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ular faoliyatiga noqonuniy aralashuvni tubdan qisqartirish, huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga nisbatan javobgarlik masalalarini to‘g‘ri va adolatli ko‘rib chiqish masalalari aniq belgilab berilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi “Sud-huquq tizimini isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4850 sonli farmoni muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 noyabrdagi “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-5268-son farmoniga ko‘ra, barcha huquqbuzarliklarga nisbatan javobgarliklarni

belgilashda fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlari birinchi o‘ringa qo‘yilmoqda. Bu shuni anglatadiki, bojxona sohasiga oid huquqbuzarliklarga nisbatan javobgarlik masalalarini belgilashda axamiyatlidir.

2018 yil “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash” davlat dasturi doirasida tadbirkorlarimizga bir qator imkoniyatlar va qulayliklar, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berildi. Lekin bunday imkoniyatlardan noto‘g‘ri maqsadlarda foydalanayotgan tadbirkorlarimiz ham yo‘q emas. Shuning uchun ham bojxona sohasiga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish hamda ushbu huquqbuzarliklarga nisbatan javobgarlik masalalarini ko‘rib chiqish va uni to‘g‘ri qo‘llash maqsadida bojxona organlarining funksional vazifalari aniq qilib belgilab berilgan.

Bojxona sohasiga oid jinoyatlar obyektiv va subyektiv sabab va omillarga ko‘ra sodir etilishi mumkin, jumladan: fuqarolarning huquqiy bilim darajasi yetarli darajada emasligi, ya‘ni belgilangan qonun va tartib-qoidalarni bilmay yoki bilgan xolda qasddan buzishlari, e‘tiborsizligi, bojxona bojlarini to‘lamaslik maqsadida fuqarolar tomonidan turli xatti-harakatlar (bojxona nazoratini chetlash yoki bojxona nazoratidan yashirish, bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalanish, deklaratsiyalarni, yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanish kabi harakatlar)ni sodir etish kabi misollar fikrimizni tasdiqlaydi. Fuqarolarning bunday harakatlari ularni javobgarlikka tortishga sabab va asos bo‘ladi.

Jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari-O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengeshining va Vazirlar Kengashining qarorlari, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlaridan iboratdir.

Jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining vazifalari-inson va jamiyat farovonligi yo‘lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta‘minlashni, **Jinoiy** huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarning o‘z vaqtida va obyektiv ko‘rib chiqilishini, shuningdek bunday huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. [1]

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun **jinoiy** javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari qanday harakat **jinoiy** huquqbuzarlik hisoblanishini, ma‘muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdor shaxs) tomonidan qay tartibda qanaqa **jinoiy** jazo qo‘llanilishi va ijro etilishini belgilaydi.

Bojxona qoida buzilishlarida shaxsni **jinoiy** javobgarlikka tortish uchun uchta asos mavjud bo'lishi shart:

1. Yuridik asos
2. Faktik asos
3. Protsessual asos

Huquqbuzarlik - huquq va muomala layoqatiga ega subyekt tomonidan sodir etiladigan, huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmishdir. [2]

Huquqbuzarlikning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- 1) huquqbuzarlik jamiyat va shaxs uchun ijtimoiy xavfli xarakterga ega;
- 2) huquqbuzarlik huquqqa qarshi xarakterga ega;
- 3) huquqbuzarlik - aybli qilmishdir;
- 4) huquqbuzarlik kishilarning erki va ongiga bog'liq bo'lgan holda, ular tomonidan ixtiyoriy amalga oshiriladi va hokazo.

Huquqbuzarlikning tarkibi muayyan huquq normalarini sharhlashda, uning mazmunini ochib berishda hamda dunyoqarash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga egadir. U o'z ichiga to'rtta unisurni qamrab oladi: *obyekt, subyekt, obyektiv tomon va subyektiv tomon*.

Huquqbuzarlikning *obyekti* deb huquq bilan tartibga solinadigan va qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga aytiladi. Obyekt huquqiy normada aniq mustahkamlangan bo'ladi.

Bojxona qonunchiligi buzilishining obyektleri:[2]

-O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish bilan bog'liq ijtimoiy munosabaitlar;

-O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tilishida bojxona nazorati;

-O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tilishida bojxona rasmilashtiruvi;

-O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalariga bojxona to'lovlarini qo'llash va undirish tartibi;

-yuqorida keltirilgan tovarlar va transport vositalariga nisbatan bojxona imtiyozlari berish va ularni qo'llash tartibi.

Bojxona qonunchiligida obyekt tushunchasidan tashqari bojxona qonunchiligi buzilishining bevosita obyekt tushunchasi mavjud.

Tovar va transport vositalariga nisbatan bojxona qonunchiligida belgilangan me'yoriy huquqiy hujjatlardagi tartibga rioya etilmaganlik bojxona qonunchiligi buzilishining bevosita obyekt hisoblanadi.

Huquqbuzarlikning *obyektiv tomoni* bo‘lib shaxsning harakat va harakatsizligi oqibatida huquqning buzilishi hamda uning **jinoiy** xavfliligi hisoblanadi. Bu huquqqa qarshi qilmishning tashqi tomonini ifodalaydi. Aynan shu ifodalanish holatiga qarab, huquqbuzarlik to‘g‘risida, ya‘ni u qanday sodir bo‘lganligi va qay darajada zarar keltirganligi haqida fikr yuritish mumkin bo‘ladi.

Obyektiv tomonning belgilar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- huquqqa qarshi qilmish;
- huquqqa qarshi zararli oqibat;
- huquqqa qarshi qilmish bilan zararli oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlik;
- joyi, vaqti, usuli va muhit.

Subyekt – ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda o‘n olti yoshga to‘lgan, aqli raso, jismoniy shaxsdir.

Huquqbuzarlikning *subyektiv tomoni* - shaxsning huquqqa qarshi qaratilgan harakati yoki harakatsizligiga va ulardan kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli qilmishga nisbatan psixik-ongli ko‘rinishdagi munosabatidir. Huquqbuzarlik subyektiv tomonining zaruriy belgisi aybdir. Ayb-huquqbuzarning huquqqa xilof hatti-harakatiga va ularning ijtimoiy xavfli oqibatiga nisbatan *qasd* yoki *ehtiyotsizlik* shaklidagi munosabatidir.

Qasd - shaxsning huquqqa xilof xatti-harakatini sodir qilayotgan paytida, bu harakatning huquqqa xilofligini, ijtimoiy xavfliligini, uning oqibatini anglash yoki tushunishidir (to‘g‘ri qasd) yoki bu xatti-harakatning ma‘lum oqibatni keltirib chiqarishiga ongli ravishda yo‘l qo‘yishidir (egri qasd).

Ehtiyotsizlik - shaxsning xatti-harakatlari natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlarning oldini olishni nazarda tutib, beparvolik bilan o‘z-o‘ziga ishonib harakat qilishidir. Qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan ayb huquqbuzarlik subyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi.

Bojxona sohasiga oid huquqbuzarliklar sodir etish xarakteriga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Tovar va transport vositalarini bojxona chegarasidan olib o‘tish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar.
2. Bojxona nazorati va rasmiylashtiruv bilan bog‘liq huquqbuzarliklar.
3. Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash bilan bog‘liq huquqbuzarliklar.

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan o‘tkazilishi bilan bog‘liq ma‘muriy huquqbuzarliklar – bu bojxona kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan o‘tkazilishi bilan bog‘liq tartib va qoidalarga aybli g‘ayrihuqukiy rioya etmaslikdir.

Bojxona nazorati va rasmiylashtiruv bilan bog‘liq ma‘muriy huquqbuzarliklar – bu Bojxona kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan Bojxona nazorati va rasmiylashtiruv bilan bog‘liq tartib va qoidalarga aybli g‘ayrihuqukiy rioya etmaslikdir.

Bojxona to‘lovlari bilan bog‘liq ma‘muriy huquqbuzarliklar – bu Bojxona kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan bojxona to‘lovlari bilan bog‘liq tartib va qoidalarga aybli g‘ayrihuqukiy rioya etmaslikdir.

2017 yil 6 sentabrda qabul qilingan “Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-442-sonli Qonuniga binoan, quyidagicha tartib belgilangan, ya‘ni:

Ishni sudga qadar yuritishning shakllari ikki turli bo‘lib, tergovga qadar tekshiruvni va jinoyat ishini tergov qilishni o‘z ichiga oladi.

Jinoyat ishini tergov qilish surishtiruv yoki dastlabki tergov shaklida amalga oshiriladi.

Ushbu qonunga ko‘ra, bojxona organlari ishni sudga qadar yuritishning **tergovga qadar tekshiruv bosqichida** bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir (JKning 182-moddasi Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarni buzish, 246-moddasi Kontrabanda jinoyatlari kabi) ishlar bo‘yicha protsessual harakatlarni amalga oshiradi.

Jinoyat ishini tergov qilishning **surishtiruv bosqichida** esa JKning quyidagi moddalarida nazarda tutilgan bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha protsessual harakatlarni amalga oshiradi:

- 130-moddasi (Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish)
- 1301-moddasi (Zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish)
- 184-moddasi (Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash)
- 2443-modda (Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish)
- 2501-moddasi (Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi)

Bojxona sohasiga oid huquqbuzarliklarga nisbatan jinoiy javobgarlik - jinoyat huquqi normalari bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabalariga jiddiy zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan tajovuz qilingandagina vujudga keladi.

Jinoiy javobgarlik - jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta‘sir chorasi qo‘llanishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibati tushuniladi.

1. O‘zbekiston Respublikasi JKda belgilangan iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni, jumladan JKning 178-moddasining birinchi qismida, ikkinchi qismining “a” va “v” bandlarida nazarda

tutilgan jinoyatni, 180, 181, 1811, 188, 189-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs, agar u huquqbuzarlik aniqlangan kundan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi».

Lekin JKning 182-moddasida belgilangan “Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish” jinoyatini sodir etgan shaxslar ushbu imkoniyatdan foydalana olmaydilar. Sababi O'RQ-418 sonli qonunda nazarda tutilgan huquqiy norma JKning 182-moddasiga nisbatan tatbiq etilmagan. Vaholanki, ushbu jinoyat xam iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar sirasiga kiradi.

Shu sababli bir narsaga e'tiborimizni qaratishimiz o'rinlidir. Ya'ni hozirgi kunda iqtisodiyotni, tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan isloxlarni, yurtimizda iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish masalasi ilgari surilayotganligini, muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning shaxsan o'zlari tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga bo'lgan e'tiborini, shuningdek JKning 182-moddasida nazarda tutilgan “Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish” jinoyati xam iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar sirasiga kirishini xamda ushbu jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori emasligini, og'ir oqibatlariga olib kelmasligini inobatga olgan xolda quyidagi taklifni kiritish maqsadga muvofiqdir.

- 182-moddani quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirish:

«Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi».

5. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 6 sentyabrdagi “Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-442-sonli Qonuniga muvofiq, Ishni sudga qadar yuritishning tergov bosqichi ikki shaklda, Surishtiruv va Dastlabki tergov shaklida amalga oshiriladigan bo'ldi. Surishtiruv organlarining barchasiga tergovga tegishliligi bo'yicha asosan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar berildi. Shu jumladan bojxona organlariga ham tergovga tegishliligi bo'yicha ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, JKning 130, 1301, 184, 2443, 2501-moddalari taalluqli etib belgilandi. Lekin JKning 182-moddasi (Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish)ga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu huquqbuzarlik bevosita bojxona organlari bilan bog'liqdir. Shuni inobatga olgan xolda, ushbu jinoyat bo'yicha ish xar tomonlama to'liq va mukammal yuritilishini ta'minlash maqsadida, qonunchiligimizga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni:

- O'zbekiston Respublikasi JKning 182-moddasi birinchi qismining sanksiya qismini quyidagi taxrirda bayon etish:

“eng kam oylik ish haqining uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki to‘rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki **bir yildan uch yilgacha** ozodlikni cheklash yoxud **uch yilgacha** ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad O‘zbekiston Respublikasi JKning 182-moddasi birinchi qismini ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar qatoriga qo‘shish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 182-moddasi birinchi qismini ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar qatoriga qo‘shishdan ko‘zlangan asosiy maqsad esa JPKning 3812-moddasiga muvofiq, JKning 182-moddasi birinchi qismini jinoyat ishining tergovga tegishliligiga ko‘ra bojxona organlariga taalluqli etib talqin qilish. Yuqoridagilarni nobatga olgan xolda quyidagini taklif etish maqsadga muvofiqdir: Ya’ni

- O‘zbekiston Respublikasi JPKning 3812-moddasi birinchi qismi 4-bandini quyidagi taxrirda bayon etish:

4) O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi hamda uning joylardagi bo‘linmalari — Jinoyat kodeksining 130-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 1301-moddasida, **182-moddasi birinchi qismida**, 184-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 2443-moddasida, 2501-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha.”

XULOSA

- **Jinoiy** javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda moddaning nomi yoki uning dispozitsiyasida aybning shakli ko‘rsatiladi. Ammo ko‘pchilik moddalarning nomi va dispozitsiyalarida aybning shakli ko‘rsatilmagan. Bunday holatlarda huquqbuzarlik huquqiy normada ko‘rsatilgan huquqbuzarlikning ayb shakli qasddan (11-modda) yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan (12-modda) huquqbuzarlik xaqidagi umumiy tushunchalarni tahlil qilish orqali aniqlanadi.

- Bojxona xaridagi qonun hujjatlarini buzganlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha qarorda quyidagilar bo‘lishi kerak:

- qaror chiqargan bojxona organining nomi, mansabdor shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi;

- ish ko‘riladigan sana va joy; ishi ko‘rilayotgan shaxsga doir ma’lumotlar; ishni ko‘rish vaqtida aniqlangan holatlar bayoni;

- bojxona haqidagi qonunlar buzilishini sodir etganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi me’yoriy hujjatlar, ish bo‘yicha qabul qilingan qaror, qaror ustidan shikoyat qilish muddatlari va tartibiga doir ma’lumotlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi

3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi
4. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi
5. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi PF-4848-son Farmoni
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi PF-4850 son Farmoni
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 noyabrdagi PF-5268-son Farmoni